

SHAXSIY YOZISHMALARDA IMLOVIY-USLUBIY XATOLAR, VARVARIZM VA VULGARIZMLARNING QO‘LLANILISHI

DIYORA PARXIDDINOVA KAMOLIDDIN QIZI

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyot ta’limi*

fakulteti 2-kurs 204-guruh talabasi

diyoraparxiddinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsiy yozishmalarda uchraydigan imloviy-uslubiy xatolar, varvarizm va vulgarizmlar haqida batafsil yoritilgan.

Annotation. The article details the spelling and stylistic errors, barbarisms and vulgarisms found in personal correspondence.

Kalit so‘zlar. Imloviy xatolar, uslubiy xatolar, varvarizmlar, vulgarizmlar.

Keywords. Spelling errors, stylistic errors, barbarisms, vulgarisms.

Ajdodlarimiz “Tilga e’tibor, elga e’tibor” hikmatini o‘zlari uchun shior deb bilganlar. Tarixdan ma’lumki, ajdodlarimiz bir-birlari bilan xatlar orqali aloqa qilishgan. Va bunda xatosiz yozishga juda katta e’tibor qaratishgan. Ular xato yozishni nafaqat bir-birlariga, balki tilga hurmatsizlik deb qarashgan. Ammo bugungi kundachi? Bugungi dunyoda texnologiyalar rivojlanib borgani sari, barcha aloqalar internet tarmoqlari va shu kabi texnologiyalarga orqali amalga oshirilmoqda. Kuzatishimizcha, shaxsiy yozishmalarning juda ko‘p qismida imloviy-uslubiy xatolar, varvarizmlar va vulgarizmlar qo‘llanilishi uchraydi. Bu holat ko‘p hollarda tilimizga hurmatsizlikni namoyon etmoqda.

Shaxsiy yozishmalar orqali bir-birimizga fikrimizni bildirar ekanmiz, ko‘p hollarda xatolarga yo‘l qo‘yamiz. Afsuski, bu xatolarning ko‘p qismini imloviy-uslubiy xatolar tashkil qiladi. Bunday xatolar, asosan, 2xil usulda yuzaga keladi: 1) savodxonlikning yetarlicha emasligi; 2) bilib turib xato yozish (“Ko‘cha tili” deb).


1-holatni savodxonlikni oshirish orqali bartaraf etish mumkin. Ammo 2-holat borgan sari odatga aylana borsa, undan voz kechish qiyin bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab yoshlar so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini bilsa-da, tengdoshlari uning to‘g‘ri yozishganini soddalikka yo‘yib, o‘z tengdoshlarini savodsizlikka olib kelmoqda. Natijada, yoshlar tilida yangi yozishuv tili-“Ko‘cha tili” paydo bo‘lmoqda. Masalan:

- 1) “sh” harfining “w” ko‘rinishida yozilishi;
- 2) “ch” harfining “4” yozilishi;
- 3) “x” va “h” harflarining almashtirib qo‘llanilishi;
- 4) unli harflarning tushirilib qolinishi;
- 5) so‘z oxiridagi undosh harflarning tushirilib qolinishi;

- 6) “ning” qaratqich kelishigining “ni” tushum kelishi tarzida yozilishi;
- 7) so‘zlarning o‘zaro bog‘lanmasligi;
- 8) ko‘plik “lar” shaklining buzilib qo‘llanilishi;
- 9) tinish belgilarining xato qo‘llanilishi yoki umuman qo‘llanmasligi va shu kabi holatlar ko‘p qo‘llaniladi.

Undan tashqari, shaxsiy yozishmalarda varvarizmlar va vulgarizmlar ham ko‘p uchraydi. Masalan:

- 1) ”qisqasi” so‘zi o‘rnida “кароче” varvarizmining qo‘llanilishi;
- 2) “baribir” so‘zi o‘rnida “зато” varvarizmining qo‘llanilishi;
- 3) “ustiga-ustak” so‘zi o‘rnida “тем более” varvarizmining qo‘llanilishi;
- 4) “ha” tasdiq so‘zi o‘rnida “да” varvarizmining qo‘llanilishi;
- 5) “yaxshi” so‘zi o‘rnida “хорошо” varvarizmining qo‘llanilishi;
- 6) “iflos”, “maraz”, “jinni”, “hezalak”, “cho‘rt”, “urot” kabi vulgarizmlarning qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi.



Tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yozishuvda:

- 1) “mening” so‘zi o‘rnida “mani” so‘zining qo‘llanilishi (uslubiy xatolik);
- 2) “bilmaydi” so‘zi o‘rnida “blmidi” so‘zining qo‘llanilishi; “oyim” so‘zidagi “i” unlisining tushirilib qoldirilishi; “ko‘p” so‘zida “o” ning “o” tarzida yozilishi; “narsalani” so‘zida “lar” ko‘plik qo‘shimchasidagi “r” ning tushib qolishi; “shuning uchun” so‘zining “shunchun” tarzida qo‘llanilishi; “urwad” so‘zida “sh”ning xato qo‘llanilishi va so‘z oxirida “i” unlisining qoldirib ketilishi; “4ortsan” so‘zida “ch” harfi o‘rnida “4” ning qo‘llanilishi; “dedi” so‘zining “didi” tarzida qo‘llanilishi; “hali” so‘zining “xali” tarzida qo‘llanilishi; “rahmatigiz” so‘zining “raxmatiz” tarzida qo‘llanilishi; “wumi” so‘zida “sh” o‘rniga “w” ning qo‘llanilishi; “db” so‘zida “e” unlisining tushib

qolishi; “bilan” bog‘lovchisining “bn” tarzida yozilishi; “ol” so‘zining “o” tarzida yozilishi, ya’ni so‘z oxirida “l” undoshining tushib qolishi (imloviy xatolik);

- 3) “4ortsan” vulgarizmining qo‘llanilishi;
- 4) “qisqasi” so‘zi o‘rnida “karoche” varvarizmining qo‘llanilishi; “ustiga-ustak” so‘zining o‘rnida “tem bolee” varvarizmining qo‘llanilishi; “xayr” so‘zi o‘rnida “paka” varvarizmining qo‘llanilishi kabilar kuzatiladi.

Bunday xatolarning oldini olish uchun, avvalo, ta’lim sifati yaxshi bo‘lishi kerak. Savodxonlikni oshirishning yana bir yo‘li bu-ijtimoiy tarmoqlarda savodxonlikning targ‘ib qilinishi, ommaviy axborot kommunikatsiyalarida (radio, televizorda) savodxonlikni oshirishga qaratilgan ko‘rsatuvlarning qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, hozirgi kunda yoshlarga qiziq bo‘lishi uchun Instagram, Telegram, YouTube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda savodxonlikni ,ayniqsa, orfografik savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan kontentlarning yaratilishi yoki reklamalar o‘rniga televideniya savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan ma’lum bir ko‘rsatuvlar qo‘yilishi-davr talabi. Bunday ishlar shunchaki nazariy ma’lumotdan ko‘ra qiziqarliroq bo‘lishi tabiiy.

Bir guruh yoshlarning oddiy so‘zlashuv tilida ishlatiladigan so‘zlarni qay darajada bilishini tekshirib ko‘rish uchun tajriba o‘tkazildi va natija quyidagicha:



Ya’ni 7ta yoshlarning 71% i “rahmat” so‘zini to‘g‘ri qo‘llaydi, ammo 29%i noto‘g‘ri, ya’ni “raxmat” so‘zi tarzida yozilishini to‘g‘ri deb biladi. Yoki ushbu yoshlarning

71%i “xo‘p” so‘zini to‘g‘ri qo‘llaydi, ammo 29%i bu so‘zni “ ho‘p” deb yozilishini to‘g‘ri deb hisoblaydi.

Shu o‘rinda men bir gapni alohida ta’kidlab o‘tishni istardim. Har qanday xorijiy tilni o‘rganishda ona tilining xizmati katta. Ona tilini yaxshi bilmay chet tilini o‘rganish qiyin, degan fikr ayni haqiqatdir. Buni biror-bir xorijiy tilni o‘rganishga kirishganlar yaxshi his etishadi: zero bu jarayonda o‘z tilimizni qay darajada bilishimiz sezilib qoladi. Ayni paytda chet tili qonun-qoidalarini o‘rganish ona tilining muhim xususiyatlari, alomatlarini chuqurroq bilib olishda yordam beradi. (1)

Xulosa. Tajribalardan kelib chiqadiki, yoshlar, umuman, insonlarning savodxonligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarda aynan shu yo‘nalish bo‘yicha blog kontentlar yaratish kerak; radio,televedeniyelarda savodxonlikni oshirish bo‘yicha ko‘rsatuvlar tayyorlash kerak. Ko‘rinib turibdiki, bu usul orfografik savodxonlikni oshiruvchi boshqa usullardan ancha qiziqarliroq va samaraliroq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduzohur Abduazizov. Tilimizga loqayd bo‘lmaylik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2013-yil 4-son. (1).
2. Dildora To‘rayeva. “Tilshunoslikda shaxsiy yozishmalarning lingvistik tadqiqi”. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent-2022. 305-310-b.
3. Dildora To‘rayeva. “Shaxsiy yozishmalarda vulgar so‘zlar va lingvistik ekspertiza”. Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya. 01.2021. 212-215-b.
4. Dilnoza Axatova. “Ijtimoiy tarmoqlarda yo‘l qo‘yiladigan imlo xatolari ustida ishlash”. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent-2022. 134-137-b.
5. Sevara Yoqubova. “Shaxsiy yozishmalarda noadabiy unli tovushlarning shaxs-yosh xususiyatiga ko‘ra xoslanish omillari”. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent-2022. 380-384-b.